



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5
MAXSUS SON



**Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti**



**“Yuksak intellektual yoshlar
hamdo‘stligi-kelajak
iqtisodiyot poydevori” talabalar
xalqaro festivali doirasida
o‘tkazilgan “O‘zbekistonning
“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish
strategiyasi: mavjud muammo
va istiqbolli imkoniyatlar”
mavzusidagi maqolalar to‘plami**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2024-yil
17-18-oktabr**



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 131 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 19-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR

Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Magistratura fakulteti, Raqamli iqtisodiyot yo'nalishi, 2-kurs MRI-01 guruh talabasi.

khasanboevamukhlisabonu@gmail.com

Annotatsiya: Sanoat ishlab chiqarish hajmining kengayishi bilan antropogen ta'sir kuchayib, tashqi muhitning tobora yomonlashuvi kuzatilmoqda. Bu esa salbiy tashqi omillarga samarali yechim topilmasdan turib, bozor tizimining barqaror ishlashi mumkin emasligini ko'rsatadi. So'nggi o'n yillikda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi siyosatchilar va iqtisodchilar tomonidan keng targ'ib qilinmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash maqsadida barqarorlik konsepsiyalari, yondashuvlari va vositalari amaliyotga keng joriy etilmoqda, bu esa ekologiya va iqtisodiyot chorrahada kesishayotganini anglatadi. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot va unga oid tushunchalar, yondashuvlar hamda xorijiy tajribalar orqali mazkur yo'nalishning mamlakatimiz uchun naqadar zarurligi yoritiladi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot barqarorlikning kaliti sifatida baholanib, sohadagi muammolar va ularga yechim sifatida muallif takliflari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, barqarorlik, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish, energiya tejamkorligi, milliy strategiya, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Abstract: The expansion of industrial production has led to increasing anthropogenic impact and continuous environmental degradation, making it impossible for the market system to function effectively without addressing these negative externalities. Over the past decade, the concept of a "green economy" has gained growing attention among policymakers and economists. The transition to a green economy is increasingly supported by the application of sustainability principles, approaches, and instruments, illustrating the intersection of ecology and the economy. This article examines the relevance of the green economy for our country by analyzing key concepts, methodologies, and international experiences. Furthermore, by positioning the green economy as a key to long-term stability, the article outlines existing challenges in the field and provides potential solutions and policy recommendations.

Key words: green economy, environmental economy, stability, sustainable development, economic growth, energy efficiency, national strategy, environmental protection.

Аннотация: Расширение промышленного производства сопровождается усилением антропогенного воздействия и ухудшением состояния окружающей среды, что делает невозможным эффективное функционирование рыночной системы без решения проблем негативных внешних эффектов. В последние десять лет концепция «зеленой экономики» получила широкое распространение среди политиков и экономистов. Переход к зеленой экономике активно поддерживается внедрением принципов устойчивого развития, подходов и инструментов, что демонстрирует пересечение экологии и экономики. В данной статье рассматриваются основные понятия, подходы и зарубежный опыт в области зеленой экономики, а также подчеркивается ее значимость для нашей страны. Кроме того, зеленая экономика рассматривается как ключ к стабильности, выявляются существующие проблемы в этой сфере и предлагаются авторские решения.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономика окружающей среды, стабильность, устойчивое развитие, экономический рост, энергоэффективность, национальная стратегия, охрана окружающей среды.



KIRISH

So'nggi yillardan buyon butun dunyo bo'ylab jamiyatlar atrof-muhitning buzilishi va resurslarning kamayishi bilan bog'liq muammolar bilan kurashib kelayotganligi sababli, barqaror rivojlanish konsepsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada, tadqiqotchilar va siyosatchilar o'z e'tiborini barqarorlikka erishishga yordam beruvchi strategiyalarni aniqlash va joriy etishga qaratib kelmoqdalar. Yashil iqtisodiyotning joriy etilishi esa paydo bo'lgan eng mashhur yondashuvlardan biri bo'lib, u ekologik masalalarni iqtisodiy tizimlarga integratsiya qilishga intiladi.

Dunyoning ko'plab davlatlari global iqtisodiyotning umumiy farovonligida ekologik omillarning ahamiyatini ta'kidlayotgan bir paytda, O'zbekiston ham ushbu sohada o'z mavqeyini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlar ko'rib kelmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotni joriy etish yo'lida bir qancha samarali qadamlar tashlandi. Yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirish maqsadida, bu soha qonunchilik bazasi orqali mustahkamlab qo'yildi. Bularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Milliy qonunchilik: O'zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qonunlarni joriy etib kelmoqda, jumladan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"^[1], "Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"^[2]. Ushbu qonunlar atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni boshqarish asoslarini belgilaydi.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha siyosat: O'zbekistonda iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan qator siyosatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq, O'zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tayyorlangan "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlandi va ushbu strategiyani ilgari surish va joriy etish bo'yicha idoralararo kengash tuzildi^[3].

Xalqaro harakatlar: O'zbekiston 1993-yil BMTning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiyaga (IO'DK) qo'shildi va 2017-yil 19-aprelda Parij bitimini imzoladi. 2018-yil 9-dekabrda esa "Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-491-son qarori kuchga kirdi. Parij bitimi bo'yicha O'zbekistonning asosiy majburiyati 2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10% ga qisqartirish hisoblanadi^[4].

Yashil iqtisodiyot loyihalari: O'zbekistonda barqaror rivojlanish va atrof-muhit sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qancha yashil iqtisodiyot loyihalari amalga oshirilib kelinmoqda. Bu loyihalar qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, energiya sarfini tejovchi texnologiyalarni kengaytirish, ekologik toza qishloq xo'jaligi amaliyotini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy baza va xalqaro loyihalar orqali shuni anglash mumkinki, O'zbekistonning kun tartibiga yashil iqtisodiyot sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ushbu tadqiqot ishida O'zbekistonning yashil iqtisodiyot sari yo'li va uni shakllantiruvchi trayektoriyasini shakllantiruvchi omillar o'rganilinadi. O'ylaymizki, iqtisodiy, ekologik va siyosiy o'lchovlarni har tomonlama tahlil qilish orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanish yo'llariga erishishning xalqaro tajribalarini ham o'rganish yashil iqtisodiyot bo'yicha kutilgan samaraga erishishga ijobiy hissasini qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Yashil iqtisodiyot" atamasi 20-asr oxirlarida iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikning ikki tomonlama muammolariga javob sifatida paydo bo'lgan. BMTning Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavflar va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot sifatida belgilaydi. Dasturda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sishni ijtimoiy inklyuziviya va ekologiyani muhofaza qilish bilan integratsiyalashuviga alohida urg'u berilgan.

Ko'plab adabiyotlarda olimlar tomonidan yashil iqtisodiyotga ta'riflar berib kelmoqdalar va ular ko'pincha turli nazariyalarni keltirib o'tadilar. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillarida boshlangan. Jumladan, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqilgan^[5].

1 <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.06.2017-yildagi 375-son

2 <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.05.2019-yildagi O'RQ-539-son

3 <https://hydromet.uz>

4 <https://hydromet.uz>

5 Декларация конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консультант плюс 4012.00.32.2002-2013



Iqtisodiy adabiyotda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda [6] qo'llaniganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda yashil iqtisodiyot mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmogi sifatida tadqiq qilinsa, ba'zi tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizmlar sifatida o'rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa yashil iqtisodiyot – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish hisoblanib, uning asosini “yashil” texnologiyalar tashkil etadi deyiladi [7].

Ekologiya va resurslar iqtisodchisi Edvard Barbier yashil iqtisodiyotga qayta tiklanadigan enargiyaning, barqaror qishloq xo'jaligining va ekologik zarasiz bo'lgan texnologiyalarning rivojlanishi sifatida qaraydi. U shuningdek yashil sektorlarga investitsiyalar iqtisodiy o'sishni kuchaytirishini ham ta'kidlab o'tgan [8].

Yashil iqtisodiyot tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rif UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, yashil iqtisodiyot – bu “insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir [9].

Republikamizning taniqli iqtisodchi olimlaridan biz A.Vahobovning ilmiy tadqiqot nazariyalariga ko'ra, atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda “yashil iqtisodiyot” ko'proq amaliy xarakterga ega hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot” ilmiy fan sohasi emas, balki ustun darajada real iqtisodiy siyosat, konkret faoliyat sohalari (energetika, innovatsiya, qishloq xo'jaligi va b.)ga taalluqlidir. Ushbu farqni “yashil iqtisodiyot”ning inglizcha economics (iqtisodiy nazariya yoki environmental economics, ecological economics kabi iqtisodiy fanlar) emas, balki economy (real iqtisodiy faoliyat) so'zlari orqali ifodalanishida kuzatish mumkinligini [10] aytib o'tgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, sintez va mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanilgan. Maqolada yashil iqtisodiy va barqaror iqtisodiy rivojlanishning o'zaro integratsiyasi va bu jarayonda O'zbekistonning erishgan natijalari, istiqbolli loyihalarini yanada rivojlantirish uchun mos ravishda ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanishning eng yangi usuli hisoblanadi. To'rtinchi sanoat inqilobida bu iqtisodiyot o'zida ko'plab yutuqlarni jamlagan va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda iqtisodiyot hamda sanoatda ulushi bo'yicha yuqori o'rinni egallab kelmoqda. Biroq yashil iqtisodiyotga o'tish biroz muddat talab qiladi va bu iqtisodiy tizimga o'tish barcha tarmoqlarni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish va iste'mol sohasini yangi texnologiyalar bilan ta'minlash orqali bo'lishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonga ham juda juda zarur hisoblanadi. Sababi, O'zbekistonning jadal iqtisodiy o'sishi asosan resurslarni qazib olish hamda iqtisodiyotning tog'-kon sanoati va ishlab chiqarish tarmoqlari hisobiga to'g'ri keladi. Shuningdek Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi O'zbekiston ham iqlim o'zgarishiga juda zaif. O'zgaruvchan iqlim uning tabiiy kapitali, qishloq xo'jaligi, yer va suv unumdorligiga tahdid solgan holda, tabiiy ofatlar xavfini kuchaytiradi. Mamlakat iqlim o'zgarishiga zaiflik bo'yicha 191 mamlakat ichida 96-o'rinni egallaydi [11].

2021-yilda O'zbekistonning ko'plab hududlari, jumladan, Toshkent 150 yillik ro'yxatga olingan tarixda eng kuchli, misli ko'rilmagan qum-chang bo'ronni boshdan kechirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'shanda qum-chang bo'roni O'zbekiston duch kelayotgan ekologik tahdidlarning salbiy ta'sirini kuchayib borayotganining so'nggi dalili bo'lganini va bu yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati bo'yicha muhim saboq bo'lganini ta'kidlab o'tgan edi. Shuning uchun ham “yashillashtirish”ga o'tish va barqarorlikni ta'minlash dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish borasida 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlandi va quyidagilar uni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;

energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

6 Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989.192pp.

7 Yashil iqtisodiyot. Makroiqtisodiyot, Darslik. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. 2020-yil, 20-bet.

8 Barbier E.B (2010). “How is the global green economy developing?”. Ecological Economics, 69(5), 953-963.

9 Навстречу “зелёной” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С.И др.:ЮНЕП/Г рид Арендал, 2011. С. 17.

10 Vaxobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil iqtisodiyot”. darslik. – T.: Universitet, 2020. – 262 b.

11 <https://gain.nd.edu/country-index>



iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

“yashil” iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiy o'sishni ta'minlashda 6 ta ustuvor yo'nalishda o'z vazifalarini belgilab olgan:

Tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;

Milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;

Milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash;

Innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish;

Barqaror va inkluziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish;

“Yashil” iqtisodiyotga o'tish davrida katta ta'sir ostida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi va ularning yashash joylarini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu ustuvor yo'nalishlar bo'yicha vazifalarning samarali amalga oshirilishi quyidagi yo'nalishlardagi tarmoqlararo choralar bilan bir qatorda amalga oshirish lozim bo'ladi. Masalan:

“yashil” o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;

“yashil” iqtisodiyotga o'tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish;

tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish.

Innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat.

“yashil” investitsiyalar konsepsiyasini integratsiyalash – mamlakatda rejalashtirilgan barcha investitsiya loyihalari uchun “yashil” mezonlarni ishlab chiqish va joriy etish;

sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash – mavjud yangi texnologiyalar va standartlarning integratsiyasi orqali sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi sanoat korxonalarining infratuzilmasi barqarorligini ta'minlash;

xususiy sektorning milliy iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash;

davlat xaridlarining shaffof va raqobatbardosh tartibini va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash;

elektron hukumat va davlat boshqaruvi salohiyatini mustahkamlash, elektron hukumat tizimini AKT infratuzilmasi va tegishli tizimlar bilan ta'minlash, davlat boshqaruvi organlarining innovatsiyalar va investitsiyalar bo'yicha salohiyatini kuchaytirish hamda davlat xizmatlari va jarayonlarini raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash [12].

Har bir rivojlanishning asosini moliyalashtirish tashkil qilganligi sababli, hukumat davlat investitsiyalarini ko'paytirishda va “yashil” o'tish uchun innovatsion moliyaviy vositalarni safarbar etishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. 2021-yilda O'zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun 870 million AQSh dollari miqdorida obligatsiyalar chiqardi. Bu maqsadlar qatorida, jumladan, yerlarni tiklash, “yashil” transportni rivojlantirish, “Yashil sukuk” mexanizmini ishga tushirish, energiya samaradorligini oshirish loyihalari va boshqa innovatsiyalarni moliyalashtirish ham bor [13]. Biroq, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi rivojlanish strategiyasiga ko'ra, qo'shimcha mablag'larni talab qiladigan ushbu tadbirlar “yashil” o'tish uchun yetarli emas. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mamlakatlar Parij kelishuvi maqsadlariga erishish uchun yalpi ichki mahsulotning (YalM) 6 foizi miqdorida moliyaviy resurslarni safarbar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Ham davlat investitsiyalarini, ham xususiy investitsiyalarni jalb qilish va ilgari rejalashtirilgan investitsiyalar uchun iqlim o'zgarishi xavfini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. 2022-yilgi davlat budjeti to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda 73-sonli Qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xalqaro rivojlanish hamkorlari (BMTTD va Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA)) ko'magida “yashil” o'tishni amalga oshirish maqsadida “yashil” moliyaviy islohot bo'yicha yetakchi davlat organi hisoblanadi. Joriy ishlar “yashil” byudjetlashtirish metodologiyasini ishlab chiqish, davlat xarajatlarini BRM bilan bog'lash va muntazam monitoring qilish, “yashil” va barqaror davlat xaridlari tamoyillarini joriy etish, soliq va subsidiyalar tizimini “yashillashtirish” sohasidagi islohotlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi “Yashil” investitsiya kengashi orqali “yashil” investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishga hissa qo'shmoqda [14].

2020-yilda Jahon Banki o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar uchun Milliy “yashil” taksonomiyani ishlab chiqish bo'yicha qo'llanma taqdim etdi. “Yashil” taksonomiyaning muhim ahamiyati quyidagilardan iborat:

12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-son 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori.

13 <https://www.imv.uz>

14 <https://worldbank.org>. O'zbekistonda Yashil O'sish va Iqlim O'zgarishi Bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi.




(1) investitsiya fondlariga “yashil” yorlig’ini berish va ularning shaffofligini oshirish uchun aniq mexanizmlar taqdim etadi;

(2) “yashil” investitsiyalarga talab yaratishda yordam beradi; “yashil” va “jigar rang” investitsiyalar o’rtasida tanlov qilish imkonini beradi;

(3) manfaatdor tomonlar – markaziy bank, hukumat, tijorat banklari, fond birjalari va boshqa tashkilotlarni birgalikda ishlashga jalb qilish orqali hamkorlik munosabtlari o’rnatiladi.

Jahon bankining 2023-yilgi O’zbekiston iqlimi va taraqqiyoti bo’yicha hisobotiga ^[15] ko’ra, mahalliy korxonalar mintaqadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan yashil tashabbuslarda faol ishtirok etib kelmoqda. Iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish hukumat uchun nisbatan yangi yo’nalish bo’lishiga qaramay, 2019-yilga kelib O’zbekistondagi korxonalarning qariyb 90 foizi allaqachon yashil tashabbuslarga sarmoya kiritib kelganlar (1-rasm). Bu yashil pul-kredit siyosati amaliyotlari iqtisodiy subyektlar tomonidan ma’qullanishi ehtimolligi yuqoriligidan dalolat beradi. Shu sababli Markaziy bankning yashil moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanishi kutilgan natija berishi ehtimoli yuqori.



1-rasm. Uch yil ichida har qanday yashil investitsiyalar bilan shug’ullangan firmalarning ulushi ^[16]

O’zbekistondagi tijorat banklari ham yashil iqtisodiyotni qo’llash va amaliyotga keng joriy etish hamda barqarorlikka erishish uchun harakat qilmoqdalar. Jumladan ilk xususiy banklardan biri bo’lgan Hamkorbank Gollandiya taraqqiyot banki bilan hamkorlikda atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytirish va energiya sarfini pasaytirishga yo’naltirilgan ekologik toza texnologiyalar va uskunalarni moliyalashtirish, shuningdek, energiya tejovchi isitish va sovutish tizimlarini joriy etish maqsadida “yashil” kreditlar sohasida faoliyat yuritmoqda. Ushbu yo’nalish dastlabki yangilik sifatida mahalliy tadbirkorlar uchun, shuningdek, Hamkorbankning o’zi uchun ham yangi soha hisoblanadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) bu tashabbusni rivojlantirish uchun maqsadli moliyaviy va texnik yordam ko’rsatmoqda. Hamkorbankning salohiyatini oshirish, uni “Yashil” iqlim jamg’armasiga (YIJ) to’g’ridan-to’g’ri chiqish uchun akkreditatsiya qilingan milliy muassasaga aylantirish imkoniyatini beradi. CAMP4ASB loyihasi doirasida Markaziy Osiyo Mintaqaviy Ekologik Markazi (MOMEM) “yashil” va iqlim mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek, O’zbekistondagi ayrim hududlarda moslashuv loyihalari bo’yicha mikrokreditlar samaradorligini baholashda yordam berib kelmoqda.

Shuningdek “yashillikka o’tish” barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish borasida o’z faoliyatida “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish va xavflarni boshqarish mexanizmlarini joriy qilgan birinchi banklardan biri “O’zsanoatqurilishbank” ham juda faol ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Armaniston Respublikasining Yerevan shahrida bo’lib o’tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 33 yillik yig’ilishi doirasida “O’zsanoatqurilishbank” YeTTBning navbatdagi faxriy mukofoti – “Yilning yashil savdo bitimi” bilan taqdirlandi. SQBning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish, energiyani tejovchi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishga qaratilgan 400 dan ortiq loyihalari, jumladan, kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan “yashil” tashabbuslari ushbu xalqaro moliya tashkiloti tomonidan ketma-ket to’rtinchi yil

15 Country Climate and Development Report: Uzbekistan (2023). World Bank Group.

16 Jahon bankining 2023-yilgi O’zbekiston iqlimi va taraqqiyoti bo’yicha hisoboti bo’yicha muallif tomonidan tayyorlandi



yuksak e'tirof etilmoqda. So'nggi uch yilda Bankning yashil kredit portfeli summasi 567 mln dollarga yetkazilib, 6763 ta yashil ish o'rinlari yaratilgan [17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi mamlakatni barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun muhim bir qadamdir. Yashil iqtisodiyotga o'tish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va resurslarni tejash orqali bir qancha imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Biroq, bu jarayon bir qator yechilishi kerak bo'lgan muammolar bilan ham bog'liq, jumladan, mas'uliyatli investitsiya muhitini yaratish, xususiyl sektorida "yashil" moliyalashtirishni rag'batlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Shuningdek, barqaror iqtisodiyotga erishish uchun O'zbekiston, birinchi navbatda, ekologik va iqtisodiy manfaatlarni birlashtirgan siyosatlarini amalga oshirishi zarur. Bu jarayon ekologik zararsiz energiya manbalarini rivojlantirish, resurslarni samarali boshqarish va aholi o'rtasida ekologik ongini oshirishni talab etadi. Bu kabi muammolarni samarali yechish uchun quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

Investitsiya muhitini takomillashtirish: Davlat tomonidan investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bu, jumladan, "yashil" loyihalar uchun moliyaviy qulayliklar va soliq imtiyozlari taklif etishni o'z ichiga olishi kerak.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Yashil energiya va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish lozim. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashdagi tadqiqot va rivojlanish (R&D) uchun moliyalashtirishni oshirish zarur.

Qonunchilik tizimini mustahkamlash: Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik va normativ-huquqiy bazani rivojlantirish. Bunda xalqaro standartlarga muvofiq "yashil" taksonomiya asosida qat'iy me'yorlarni belgilash muhimdir.

Ijtimoiy faoliyatni rag'batlantirish: Mahalliy aholi va tadbirkorlarga "yashil" investitsiya va loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish. Ijtimoiy xatarlarni kamaytirish va aholi xabardorligini oshirish muhimdir.

Monitoring va Baholash tizimini yaratish: Yashil investitsiyalarning samaradorligini monitoring qilish va baholash uchun tizimlar olib borish zarur. Bu orqali davlat siyosati va xususiyl sektordagi tashabbuslarning ijobiy natijalarini aniq ko'rish mumkin bo'ladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun nafaqat iqlim o'zgarishiga qarshi samarali kurash, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ham muhimdir. Umid qilamizki, ilgari surilgan takliflar orqali O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror va yashil rivojlanish yo'liga olib bora oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.06.2017-yildagi 375-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.05.2019-yildagi O'RQ-539-son.
3. Декларация конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консультант плюс 4012.00.32.2002-2013.
4. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989.192pp.
5. Yashil iqtisodiyot. Makroiqtisodiyot, Darslik. Vaxabov A.V, Xajibakiyev Sh.X. 2020-yil, 20-bet.
6. Barbier E.B (2010). "How is the global green economy developing?". Ecological Economics, 69(5), 953-963.
7. Навстречу "зелёной" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С.И др:ЮНЕП/Г рид Арендал, 2011. С. 17.
8. Vaxobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. "Yashil iqtisodiyot". darslik. – T.: Universitet, 2020. – 262 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
10. Country Climate and Development Report: Uzbekistan (2023). World Bank Group.
11. Jahon bankining 2023-yilgi O'zbekiston iqlimi va taraqqiyoti bo'yicha hisoboti.
12. <https://www.imv.uz>
13. <https://worldbank.org>.
14. <https://sqb.uz>
15. <https://lex.uz>.
16. <https://gain.nd.edu/country-index>
17. <https://hydromet.uz>



MUNDARIJA

YOSHLAR – ERTAMIZ EGALARI!.....	5
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОСТИ	6
Абдурахимов Абдор Зафарович, Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	13
Akramova Aziza Abduvohidovna	
“ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”	20
Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li	
BARQAROR KELAJAK UCHUN BudgetLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH.....	27
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO “GREEN ACCOUNTING”: EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	32
Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli, Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna	
ЎЗБЕКИСТОНДА YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV.....	37
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhridin Bahriddinovich	
UZBEKISTAN’S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY STRATEGY: CURRENT CHALLENGES AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	43
Ikromova Munisa Ikrom qizi	
ЎЗБЕКИСТОНДА “YASHIL” IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	48
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi	
YASHIL IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI HAMDA BARQAROR TARAQQIYOTGA TA’SIRI.....	54
Isroilov Eldorbek Elyorbek o‘g‘li	
GREEN FINANCE IN UZBEKISTAN: ADVANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH INNOVATIVE STRATEGIES	60
Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna Yuldasheva Nadira Viktorovna	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOIY	69
Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li, Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBALARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH TAMOIYILLARI	77
Mamayusupova Shohina Ulug‘bek qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ.....	83
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	89
Mirzohamdamov Abdurasul Ravshan o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergashevich	



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	94
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ": СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	100
Усмонов Дониёр Ибрагимович, Насырходжаева Диляфруз Сабитхановна	
NEW INSURANCE PRODUCTS IN GREEN ECONOMY: NEW OPPORTUNITIES AND RISKS IN THE FINANCIAL SECURITY CONTEXT.....	110
Xodjaraxmanova Nazira Bakhtiyar kizi	
PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN	117
Yo'ldoshev Ozodbek Abduvohid o'g'li	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARINI MOLIYALASHTIRISHGA OID LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA ULARNING STATISTIKASI	122
Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024-yil 17-18-oktabr, № 5 maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
